

## JINOYAT ISHLARIDA ADVOKATNING MALAKALI YURIDIK YORDAM KO'RSATISHI VA JINOYAT PROTSESSI BILAN BOG'LIQ HUQUQIY ASOSLARI

Maxkamboyeva Diyorabonu Raxim qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15093916>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada jinoyat ishlarida advokatning malakali yuridik yordam ko'rsatishi, uning jinoyat protsessidagi o'rni va huquqiy asoslari yoritiladi. Shuningdek, jinoyat ishlari bo'yicha advokatlik faoliyatining ahamiyati, xalqaro tajribalar va mayjud muammolar tahlil qilinadi. Maqolada advokatning tergov, sud va apellyatsiya bosqichlarida mijozining huquqlarini himoya qilishda tutgan o'rni hamda samaralihimoya mexanizmlari haqida so'z yuritiladi.

*Kalit so'zlar.* Jinoyat protsessi, advokat, malakali yuridik yordam, ayblanuvchi, guman qilinuvchi, sud, himoya, huquqiy asoslar, tergov.

## ЮРИДИЧЕСКАЯ ПОМОЩЬ АДВОКАТА В УГОЛОВНЫХ ДЕЛАХ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА

*Аннотация.* В статье рассматриваются вопросы квалифицированной юридической помощи адвоката в уголовных делах, его роль в уголовном процессе и правовые основы его деятельности. Анализируются значимость адвокатской деятельности в уголовных делах, международный опыт и существующие проблемы. Также обсуждаются механизмы защиты прав подозреваемого и обвиняемого на всех этапах расследования и судебного разбирательства.

*Ключевые слова.* Уголовный процесс, адвокат, квалифицированная юридическая помощь, обвиняемый, подозреваемый, суд, защита, правовые основы, следствие.

## QUALIFIED LEGAL ASSISTANCE OF A LAWYER IN CRIMINAL CASES AND LEGAL FOUNDATIONS OF THE CRIMINAL PROCESS

*Abstract.* This article examines the role of a lawyer in providing qualified legal assistance in criminal cases, their role in the criminal process, and the legal basis for their activities. The importance of legal defense in criminal proceedings, international experience, and existing challenges are analyzed. The article also discusses defense mechanisms at different stages of investigation, trial, and appeal processes.

*Keywords.* Criminal process, lawyer, qualified legal assistance, defendant, suspect, court, defense, legal foundations, investigation.

**Kirish:** Malakali yuridik yordam ko'rsatish bugungi kunda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Huquqiy himoya va adolat tamoyillarini ta'minlashda yuridik yordam nafaqat inson huquqlarining himoyasi, balki ijtimoiy barqarorlik va adolatli boshqaruv tizimini shakllantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Inson huquqlarini himoya qilish, adolatli sudlovni ta'minlash va barcha fuqarolarga huquqiy yordam olish imkoniyatini berish xalqaro me'yor va tamoyillarning asosiy yo'naliшlaridan biri bo'lib kelmoqda.

Jinoyat protsessi odil sudlov tamoyillariga asoslangan bo'lib, u shaxsning erkinligi va huquqlarining kafolatlanishini ta'minlaydi. Bu jarayonda advokatning o'rni juda muhim bo'lib, u gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining manfaatlarini himoya qiladi. Malakali yuridik yordam inson huquqlarini himoya qilish, adolatli sudlovni ta'minlash va noqonuniy jazolardan qochish uchun zarurdir. Ushbu maqolada jinoyat ishlarida advokatning huquqiy himoyasi, uning sud jarayonidagi vazifalari, xalqaro tajribalar va jinoyat protsessi bilan bog'liq muhim jihatlar ko'rib chiqiladi.

Dunyoda yuridik yordam va adolatli huquqiy himoya yetishmovchiligi katta global muammo bo'lib qolmoqda. Jalon Adolat Loyihasi(*World Justice Project*)ning hisob-kitoblariga ko'ra, hozirda taxminan *5.1 milliard* odam kamida bir marta huquqiy yordamdan chetda qolgan. Ushbu "adolat bo'yicha bo'shliq" nafaqat rivojlanmagan va mojarolar mavjud bo'lgan hududlarda, balki turli mamlakatlarda keng tarqalgan bo'lib, ko'plab odamlar huquqiy muammolarini hal qilish uchun yuridik yordam ololmaydi yoki adolatli natijalarga erishomaydilar. Bunda taxminan *1.5 milliard* odam huquqiy yordam ololmasligi sababli oddiy kundalik hayotdagি huquqiy muammolariga javob topolmaydilar. Bu ko'rsatkichlar qamrovli huquqiy yordam ko'rsatishning naqadar dolzarb ekanini ko'rsatib turibdi. Shu jumladan, ushbu sohada xalqaro miqyosda ko'proq resurs va mexanizmlarni yaratish zarurligini bildiradi.

**Asosiy qism: Jinoyat protsessida advokatning o'rni.** Jinoyat protsessi har qanday huquqiy tizimning eng muhim bo'g'ini bo'lib, unda advokatning roli beqiyos ahamiyat kasb etadi. Jinoyat ishlari bo'yicha sud jarayonlari faqatgina tergov organlari va prokuratura tomonidan olib boriladigan ish emas, balki gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining huquqlarini ta'minlash va adolatli sudlovni amalga oshirish uchun advokat ishtiroki ham muhim sanaladi.

Advokat mijozining huquqlarini har qanday bosqichda himoya qiladi, dalillarni tahlil qiladi, himoya strategiyasini ishlab chiqadi va sud jarayonida adolat o'rnatilishiga xizmat qiladi.

Aynan jinoyat protsessida advokatning vakolatlari va himoya uslublari juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ayblov xulosasining to'g'riliги, tergov organlari tomonidan olib borilgan ishning qonuniyligi va sud qarorining adolatli bo'lishi ko'p jihatdan himoyachining kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi.

**Jinoyat protsessida advokat funksiyalarining huquqiy asoslari.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **29-moddasiga** binoan har bir shaxs malakali yuridik yordam olish huquqiga ega. Jinoyat-protsessual kodeksda esa ayblanuvchiga o‘zini himoya qilish huquqi berilgan bo‘lib, u o‘z xohishiga ko‘ra advokat yollash yoki davlat hisobidan advokat tayinlashni talab qilish huquqiga ega. Himoyachi jinoyat ishining dastlabki bosqichidan boshlab ishtirok etishi va mijozining huquqlarini to‘liq himoya qilishi lozim.

Advokatning asosiy vazifalaridan biri – sudda mijozining aybsizligini isbotlash yoki unga nisbatan tayinlanayotgan jazoni engillashtirishdan iborat bo‘ladi. Ko‘p hollarda gumon qilinuvchilar o‘z huquqlarini yetarli darajada bilmasligi yoki tergov jarayonida bosim ostida qolishi mumkin. Shu sababli, advokatning tergov jarayonida qat’iy turishi va mijozining huquqlarini buzilishiga yo‘l qo‘ymasligi jinoyat protsessining adolatli bo‘lishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

**Tergov bosqichida** advokatning roli juda katta bo‘lib, aynan shu jarayonda ayblovga asos bo‘ladigan dalillar to‘planadi. Bu bosqichda himoyachi so‘roq jarayonida ishtirok etishi, noqonuniy usullar qo‘llanganligini aniqlashi, mijozining o‘z xohishiga qarshi guvohlik berishga majburlanmaganligini ta’minlashi kerak. Advokat himoya strategiyasini ishlab chiqib, ayblovning asossiz ekanligini isbotlash uchun dalillar taqdim etadi.

Ko‘p hollarda, tergov organlari ayblovlarini tasdiqlovchi dalillarni yig‘ishga ko‘proq e’tibor qaratib, himoyaga oid jihatlarni chetlab o‘tishga harakat qiladi. Shu sababli, advokat mustaqil ravishda dalillarni tahlil qilib, ish bo‘yicha yangi guvohlarni topish, ekspertiza tayinlash yoki sudga qo‘srimcha dalillar taqdim etish orqali mijozining himoyasini kuchaytirishi mumkin.

**Sud jarayonida** esa advokat ayblovning har bir jihatini tahlil qilib, sudga isbotlovchi hujjalalar taqdim etishi, guvohlarni so‘roq qilish va mijozining aybsizligi yoki javobgarligini kamaytirishga harakat qilishi lozim. Advokat sud jarayonida prokuratura tomonidan ilgari surilgan dalillarning ishonchlilagini tahlil qiladi, ularning qanchalik qonuniy ravishda qo‘lga kiritilganligini tekshiradi va zarurat tug‘ilganda ularning bekor qilinishini talab qiladi.

Ayrim holatlarda, tergov organlari tomonidan noto‘g‘ri yoki noqonuniy olingan dalillar asosida ish ochilishi mumkin, bu esa sud jarayonida jiddiyadolatsizliklarga olib keladi. Advokat bunday vaziyatlarning oldini olish uchun qonun buzilganligini isbotlab, suddan ayblovga asos bo‘lgan dalillarni ishdan chiqarishni talab qilishi mumkin.

**Xorijiy tajriba.** Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, AQSH va Buyuk Britaniya kabi davlatlarda jinoyat ishlarida advokat yordami inson huquqlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu davlatlarda davlat hisobidan yuridik yordam tizimi keng rivojlangan.

AQSHda “*Miranda qoidalari*”ga ko‘ra, har qanday shaxs ushlangan paytidayoq unga advokat yollash huquqi tushuntirilishi shart va agar u o‘z hisobidan advokat yollay olmasa, davlat tomonidan himoya vakili tayinlanadi.

Buyuk Britaniyada ham shunga o‘xhash tizim mavjud bo‘lib, “*Legal Aid Agency*” orqali fuqarolarga yuridik yordam ko‘rsatish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu mamlakatlarda advokatlar nafaqat mijozlarini himoya qiladi, balki tergov organlari tomonidan noqonuniy harakatlarning oldini olishda ham faol ishtirok etadi. Bu davlatlarda yuridik yordam ololmagan shaxslarning 75 foizga yaqini sud jarayonida o‘z huquqlarini to‘liq himoya qila olmasligi aniqlangan. Shu sababli, O‘zbekistonda ham davlat hisobidan yuridik yordam tizimini kengaytirish va jinoyat ishlari bo‘yicha malakali advokatlarning arzon va qulay xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini oshirish zarur.

*Xulosa qilib aytganda*, Jinoyat ishlarida advokatning malakali yuridik yordamiadolatli sudlovni ta’minalash uchun zarur bo‘lib, bu nafaqat gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining huquqlarini himoya qiladi, balki jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston qonunchilagini xalqaro standartlarga moslashtirish, advokatlar mustaqilligini oshirish va sud jarayonlarining shaffofligini ta’minalash orqali jinoyat ishlari bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirishga erishish mumkin.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi//<https://lex.uz/docs/-111460>
3. Saidov A.X. Xalqaro huquq: Darslik. – T, - 315-bet;
4. World Justice Project. Measuring the Justice Gap. 2023.
5. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC). Legal Aid Systems and Access to Justice. 2022.